



ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



**2021 йил махсус сон**



*[НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2021 йил махсус сон](#)*

**Бош муҳаррир:** Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

**Маъсул муҳаррир:** Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Кодирхонов

**Маъсул муҳаррир ўринбосари:** Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиги Р.Жалалов

**ТАХРИРХАЙЪАТИ**

**Физика-математика фанлари:** акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хақимов, ф-м.ф.д. М.Раҳматуллаев.

**Кимё фанлари:** акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

**Биология фанлари:** акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

**Техника фанлари:** т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юсупов.



Tools



Mobile View



Share



PDF to DOC



Edit on PC

Alihonova M. ....	434
90 <b>Tarbiyachining innovatsion faoliyati maktabgacha ta'limni rivojlantirish omili sifatida</b>	
Mirzatoeva G. X. ....	439



Telegram 301 ta yangi xabar 6 ta chatdan



*NamGU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ 2021 йил махсус сон*

91 <b>Yuqori malakali futbolchi xotin-qizlarni mashg'ulotlar uchun yuklamalarni rejalashtirish.</b>	
Nodirov B.H. ....	443
92 <b>Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlasgda steam tizimini samaradorligi.</b>	
Xolmatova S.V. ....	446
93 <b>Chet til darslarida hamkorlik ta'limi</b>	
Shamshidinov U.Z. ....	451
94 <b>Creating tasks for developing learners' critical thinking in english classes</b>	
Yuldasheva D.Q. ....	454
95 <b>Организация изобразительной деятельности детей дошкольного возраста</b>	
Худайкулова Д.З. ....	458
96 <b>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ salohiyatini yuksaltirishda olib boriladigan ishlar</b>	
Karimova D.M., Nurallyeva K.I. ....	464
97 <b>Boshlang'ich sinflarda mumtoz adabiyot o'qitishning badiiy-estetik va ilmiy-pedagogik asoslari</b>	
Jo'rayeva D. ....	469
98 <b>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat malakalarini rivojlantirishda milliy harakatli o'yinlarning o'rni</b>	
Ismoilov G'. ....	474
99 <b>Abituriyentlarning til ta'limidan morfemikani o'zlashtirishining besh xil metodi</b>	
Isaqova G.A. ....	476
100 <b>An'anaviy va no'anaviy dars mashg'ulotlari, uning afzallik va kamchiliklari</b>	
Ibroximov M.A., Rustamova Z.F. ....	480
101 <b>CEFR va uning davlat ta'lim standartlari bilan muofikligi</b>	
Iqromova M.D. ....	485
102 <b>Umumta'lim maktabi o'quvchilarini sport to'garaklariga tanlab olish va yo'naltirish</b>	
Boltabayev Sh.O. ....	495
103 <b>Umumta'lim maktablarida katta tanafuslardagi o'yinlarni o'quvchilar harakat faolligini rivojlanishidagi roli</b>	
Jiyanov O.M., Sultonov B.S. ....	498
104 <b>Umumta'lim maktablaridagi jismoniy tarbiya darslarida milliy harakatli o'yinlarning tutgan o'rni va ahamiyati</b>	
Mahmudjonov A.A., Nabijonova M.M. ....	503
105 <b>Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u Lug'atit Turk" asarini innovatsion texnologiyalar asosida o'rganish.</b>	
Qo'chqarov B.A. ....	508
106 <b>Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda kitob bilan ishlash malakasini rivojlantirish usullari.</b>	
Ismailova N.I. ....	513
107 <b>Tehnologiya darslarida o'quvchilarga zamonaviy kasblar haqida tushuncha berish va qiziqitirish omillari.</b>	
Muxitdinova J.R., Turg'unpulatova M. ....	517



*NamGU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ 2021 йил махсус сон*

108 <b>Устоз-шоғирд маданиятини шакллантиришда Айкидо шарқ яккакурашининг аҳамияти</b>	
Камбаров Н.С., Раҳматова Х.А. ....	525
109 <b>Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida jismoniy tarbiya vositalarining o'rni.</b>	
Asqarova D.Q., Asqarov F.T. ....	530
110 <b>Технология дарсларида ўқувчиларни техник фикрлаш қобилиятини шакллантириш ва ривожлантириш зарурати</b>	
Мухитдинова Ж.Р. ....	535
111 <b>Kitobga muhabbat uyg'otishda oilaning o'rni</b>	
Xodjiyeva F.T. ....	539
112 <b>Bolalar bog'chasida chet tilni o'rgatish metodikasi</b>	
Nishanova T.A., Shermatjonova M.N. ....	542
113 <b>Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilariga chet tili grammatikasi o'qitishning zamonaviy usul va vositalari</b>	
Mamatova D., Shamsiddinova M. ....	545
114 <b>Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning</b>	



108	<b>Устоз-шогирд маданиятини шакллантиришда Айкидо шарқ яккакурашининг аҳамияти</b> Камбаров Н.С., Рахматова Х.А. ....	525
109	<b>Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida jismoniy tarbiya vositalarining o'rne.</b> Asqarova D.Q., Asqarov F.T. ....	530
110	<b>Технология дарсларида ўқувчиларни техник фикрлаш қобилиятини шакллантириш ва ривожлантириш зарурати</b> Мухитдинова Ж.Р. ....	535
111	<b>Kitobga muhabbat uyg'otishda oilaning o'rne</b> Xodjiyeva F.T. ....	539
112	<b>Bolalar bog'chasida chet tili o'rgatish metodikasi</b> Nishanova T.A., Shermatjonova M.N. ....	542
113	<b>Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilariga chet tili grammatikasi o'qitishning zamonaviy usul va vositalari</b> Mamatova D., Shamsiddinova M. ....	545
114	<b>Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning samarali yo'llari</b> Jo'rayeva T.U. ....	548
115	<b>An'anaviy va no'anaviy dars mashg'ulotlari, uning afzallik va kamchiliklari</b> Ibrohimov M.A., Rustamova Z.F. ....	553
116	<b>Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish.</b> Nuriddinova D.I., Zaylobiddinova M. A., ....	557
117	<b>Kitobxonlikka qiziqishni tarbiyalash orqali o'quvchilarda shaxslararo madaniyatni shakllantirish</b> Zaylobiddinova M. A., Nuriddinova D.I. ....	562
118	<b>O'quvchilarda kreativ salohiyatni shakllantirishning individual-psixologik xususiyatlari</b> Ibrohimova N.I., Nuraliyeva K.I. ....	567
119	<b>Fan-texnika taraqqiyoti davrida yoshlar tarbiyasining dolzarb muammolari.</b> Mirqosimova M. ....	572
120	<b>Халқ ўйинларининг таълим – тарбия жараёнидаги педагогик омиллари</b> Эгамбердиева Т.А., Йўлдошев С.В. ....	575
121	<b>Oliy ta'lim muassasalari talabalarini sog'lom turmushga tayyorlashda jismoniy tarbiya va sportning o'rne</b> Mahmudov N.N. ....	580
122	<b>The role of motivation in teaching English to young learners</b> Akbarova R., Baxriddinov A. ....	584
123	<b>Chet ta'limida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari</b> Kukiboyeva M. ....	589
124	<b>Ingliz tilini o'rganish jarayonida tanqidiy fikrlash madaniyatini shakllantirish omillari</b> Tuychiev A.T. ....	592



125	<b>Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda, multimedia darsliklarining ta'lim tizimida tutgan o'rne.</b> Valiyeva Sh.A., Gapporov B. ....	597
126	<b>Талабаларда жисмоний тарбияга қадриятли муносабатларини ривожлантиришга хос малака ва кўникмаларни юксак даражада самарали йўлга қўйиши</b> Назаров А.Т. ....	599
127	<b>Картографическая грамотность - признак географической культуры</b> Абдурахмонов Б.М. ....	603
128	<b>Бўлажак тарбиячиларда касбий компетентликни ривожлантириш омиллари</b> Абдусаматова Н.Ж. ....	609
129	<b>Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг касбий компетенцияларини ривожлантириш йўллари</b> Абдусаматова Б.М. ....	613
130	<b>Интернеттехнологиялар бо'йича та'лим олишга талаб</b> Borisova V.A. ....	616
131	<b>Методика преподавания категории рода существительного в начальных</b>	

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA OLIB BORILADIGAN ISHLAR**

Karimova D.M Namangan davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti  
"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi BT-EU-21 guruh talabasi

**Nuraliyeva K.I NamDU "Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi"**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik salohiyatini yuksaltirish uchun olib boriladigan chora-tadbirlar xususida so'z borgan. Shuningdek, o'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirish va ularning kreativ fikrlarini yanada rivojlantirishda olib boriladigan ishlar yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** Shaxs, o'quvchi, o'qituvchi, kreativlik, g'oya, qobiliyat, ijodkorlik, salohiyat.

**РАБОТЫ ПРОВОДИМЫЕ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КРЕАТИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Дильнавоз Каримова - дочь Маруфжона

НамГУ учится на специальности «Начальное образование».

Нуралиева К. И НамГУ в начальном образовании. Преподавание социальных наук преподаватель кафедры методологии

**Аннотация:** В этой статье обсуждаются шаги, которые можно предпринять для повышения творческого потенциала учеников начальной школы. В нем также подчеркивается, что можно сделать, чтобы побудить учащихся к творчеству и дальнейшему развитию их творческого мышления.

**Ключевые слова:** человек, ученик, учитель, творчество, идея, способность, творчество, потенциал.

**WORKS CONDUCTED TO IMPROVE THE CREATIVE POTENTIAL OF STUDENTS IN ELEMENTARY CLASSES**

Dilnavoz Karimova is the daughter of Marufjon

NamSU is a student of "Primary Education"

Nuraliyeva K. I NamSU In primary education teaching social sciences teacher of the department of methodology

**Annotation:** This article discusses the steps that can be taken to increase the creative potential of primary school students. It also highlights the work that can be done to encourage students to be creative and further develop their creative thinking.

**Key words:** person, student, teacher, creativity, idea, ability, creativity, potential

Mustaqil O'zbekistonda bilim asoslarini puxta egallashlari bilan birgalikda mustaqil va kreativ fikrga ega bo'lgan, g'oyaviy, mafkuraviy jihatdan chiniquqan kasbiy mahoratini yurtimizning ravnaqi yo'lida fidokorona safarbar eta oladigan ruhda tarbiyalash muhim vazifa qilib qo'yilgan. Xususan, muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan qat'iyat bilan davom ettiramiz, balki



bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz" <sup>55</sup>, - bejizga aytmaganlar. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz kabi so'zlari biz yoshlarni yanada chuqurroq bilim olishga ishtiyoqimizni kuchaytirishga yordam beradi.

Respublikamizda ta'lim sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir o'quvchining zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kun uchun eng dolzarb masalaga aylangan. Bunda esa o'quvchilarning kreativ salohiyatini yuksaltirish muhim ro'l o'ynamoqda. Xususan, kreativ fikrlash salohiyati yuksalgan shaxslar har bir muhitda o'zining atrofidagi shaxslarga nisbatan o'zgacha fikrlashi, har bir muammo va masalalarga yangicha ruh bilan yondasha olishi bilan boshqa jamiyat



**Annotation:** This article discusses the steps that can be taken to increase the creative potential of primary school students. It also highlights the work that can be done to encourage students to be creative and further develop their creative thinking.

**Key words:** person, student, teacher, creativity, idea, ability, creativity, potential

Mustaqil O'zbekistonda bilim asoslarini puxta egallashlari bilan birgalikda mustaqil va kreativ fikrga ega bo'lgan, g'oyaviy, mafkuraviy jihatdan chiniqqan kasbiy mahoratini yurtimizning ravnaqi yo'lida fidokorona safarbar eta oladigan ruhda tarbiyalash muhim vazifa qilib qo'yilgan. Xususan, muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan qat'iyat bilan davom ettiramiz, balki

464



*NamGU ilmiy xabornomasi - Научный вестник НамГУ 2021 йил махсус сон*

bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz"<sup>55</sup>, - bejizga aytmaganlar. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz kabi so'zlari biz yoshlarni yanada chuqurroq bilim olishga ishtiyoqimizni kuchaytirishga yordam beradi.

Respublikamizda ta'lim sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir o'quvchining zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kun uchun eng dolzarb masalaga aylangan. Bunda esa o'quvchilarning kreativ salohiyatini yuksaltirish muhim ro'l o'ynamoqda. Xususan, kreativ fikrlash salohiyati yuksalgan shaxslar har bir muhitda o'zining atrofidagi shaxslarga nisbatan o'zgacha fikrlashi, har bir muammo va masalalarga yangicha ruh bilan yondasha olishi bilan boshqa jamiyat a'zolaridan ajralib turadi.

Agar atrofga nazar tashlasak, ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlangan shaxslar tomonidan yaratilgan namunalar insonlarni hayratlantiradi. *Elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish...* Nafaqat hayratlanarli namunalar, balki biz kundalik hayotda ishlatadigan buyumlarni ham qaysidir ijodkor, kreativ fikrli shaxs tomonidan o'yab topilgan va shu holda yasalgan. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil qiladi, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tariqa kreativlik hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada kreativ fikrlovchi mutaxassislar talab kattadir. Chunki kreativ fikrlash o'quvchini yaxshi natijalarga erishishiga turtki bo'ladi. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislar talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Bu esa o'z-o'zidan pedagogika faniga "kreativlik" degan tushunchaning olib kirilishiga sabab bo'ladi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini anglash darkor. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va hokazo...) va samarali (amaliy, natijaviy, tejamlil, optimal va hokazo...) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir. Shuningdek, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga har nuqtadan rakursdan yondashishni anglatadi. Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishga yordam beradi. Biroq biz uni tanqidiy fikrlash bilan adashtirib yubormasligimiz, aksincha bizga inkonsiz muammolarni hal qilishda bir-birini to'ldirib turuvchi yechimlarni topishda yordam beradigan aka-ukalardek qarashimiz kerak. Agar ibtidoiy odamlarda kreativ fikrlash bo'lmaganda edi, ikkita chaqmoqtoshni bir-biriga urib olovni, Tomas Edison elektr lampasini, Leonardo da Vinchi parashutni ixtiro qilmagan bo'lar edi.

Har bir dars bolaning qobiliyat uchunlarini anglata oladigan kichik ixtiroday o'tishi zarur. Lekin ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va

<sup>55</sup> SH. M. Miromonovich "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent- O'zbekiston-2016 14-bet

465



*NamGU ilmiy xabornomasi - Научный вестник НамГУ 2021 йил махсус сон*

tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotlarni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa bir necha xaborni umumiy lashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan. Bolalar uchun sinfdoshlari oldida o'zini ko'rsata olishi, nimalarga qodirligini isbotlay olishi juda muhim qirra hisoblanadi. Buning uchun ularga imkoniyat yaratish lozim. Ular uchun berilgan har bir imkoniyat ularning kreativ fikrlashlari uchun turtki bo'ladi. Bolalar uchun qanchalik oila va maktab muhitida erkin fikrlashi uchun imkoniyat yaratilsa, bu bola shunchalik yangi fikrlar bilan yuzlanadi. Muhit qanchalik yaxshi bo'lsa, bolada tasavvur doirasi ham shunchalik katta bo'ladi. Berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yod olib

yuzasidan nar tomonlarga iklasib, bir nuqtaga nar nuqtadan takursan yonqasusini anglatadi. Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishga yordam beradi. Biroq biz uni tanqidiy fikrlash bilan adashtirib yubormasligimiz, aksincha bizga inkonsiz muammolarni hal qilishda bir-birini to'ldirib turuvchi yechimlarni topishda yordam beradigan aka-ukalardek qarashimiz kerak. Agar ibtidoiy odamlarda kreativ fikrlash bo'lmaganda edi, ikkita chaqmoqtoshni bir-biriga urib olovni, Tomas Edison elektr lampasini, Leonardo da Vinchi parashutni ixtiro qilmagan bo'lar edi.

Har bir dars bolaning qobiliyat uchqunlarini anglata oladigan kichik ixtiroday o'tishi

Convert this document and share it as an image

Share

465



*NamGU ilmiy axborotnemas - Научный вестник НамГУ 2021 йил махсус сон*

tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotlarni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa bir necha axborotni umumiy lashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan. Bolalar uchun sinfdoshlari oldida o'zini ko'rsata olishi, nimalarga qodirligini isbotlay olishi juda muhim qirra hisoblanadi. Buning uchun ularga imkoniyat yaratish lozim. Ular uchun berilgan har bir imkoniyat ularning kreativ fikrlashlari uchun turtki bo'ladi. Bolalar uchun qanchalik oila va maktab muhitida erkin fikrlashi uchun imkoniyat yaratilsa, bu bola shunchalik yangi fikrlar bilan yuzlanadi. Muhit qanchalik yaxshi bo'lsa, bolada tasavvur doirasi ham shunchalik katta bo'ladi. Berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlamni yod olib grammatikani puxta o'rgangan bo'lsa ham, lekin insho yoza olmasa bularning barchasi bekoridir. Shuning uchun ham kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Enshyeyn: "Tasavvur – bilimdan muhim",- deb aynan mana shu jihatni nazarda tutgan.

1-sinflarda o'quv mashg'ulotlarini tuganmas sayohat tarzida tashkil qilishlari mumkin. Bunda o'quvchilar dastlabki xayol usullarini o'rganishadi va bular asosida qiziq voqealar, hikoyalar, topishmoqlar, she'r va ertaklar yuzaga keladi. Bolalar ijodiyoti o'quv jarayoniga bog'liq ravishda borgan sari boshqaruvchan bo'lib boradi. O'quv yilining oxiriga kelib o'quvchilar mustaqil ravishda hikoya va ertak tuzish usullarini yetarli darajada o'zlashtirgan bo'lishlari lozim hamda tizimlarning ichki tuzilishi bilan tanishib, ularning bo'linmalari va nima uchun xizmat qilishini o'rganish uchun dastlabki qadamlar qo'yilishi kerak. Xususan, 2021-yil yangilangan 1-sinf o'quv darsliklariga yuzlanadigan bo'lsak, ushbu kitoblarda iloji boricha o'quvchilarni fikrlashga undashga harakat qilingan. Amaldagi darsliklar yuzasida aholidan, ota-onalardan bir qator takliflar kelib tushganligi va ko'plab muhokamalarga sabab bo'lganligi hech kinga sir emas. Jumladan, amaldagi darslikda o'quv dasturining bob va mavzulari to'raligicha o'z ifodasini topmaganligi dars soatiga nomutanosib, mavzularni yoritishda materiallar ilmiy jihadan to'g'ri berilmaganligi va darslik mavzularini o'zlashtirish uchun berilgan mashq, topshiriq va amaliy mashg'ulotlar pedagogik texnologiyalar asosida tuzmaganligi shu paytgacha o'qituvchilarga ham dars o'tish jarayonida qiyinchilik tug'dirayotgan edi. Hududlarda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'qitiladigan darsliklarni o'rganishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun yangi Milliy o'quv dasturi joriy etildi. Yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish jarayonida o'qituvchining metodik qo'llanmasi, o'quvchining mashq daftari va multimedia ilovasi bilan birga kompleks tarzda yaratish va nashr etish o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash, ularga o'z bilim va ko'nikmalarida amaliyotda foydalanishni o'rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish va ularning kreativ fikrlash salohiyatini rivojlantirish masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Shunisi qiziqki, bolalar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar yoshlar va balog'atga yetgan shaxslarda ijodkorlik salohiyati bir xil bo'lishi aniqlandi. Shundan xulosa chiqarish mumkinki, kreativlik shaxsiy qobiliyatlarga asoslangan holda bolalarning juda yoshlik chog'idan rivojlanishini bilish mumkin. Demak, yangicha fikrlash boshlang'ich sinf o'quvchilarida ham kuchli bo'ladi, faqat uni to'g'ri yo'naltira bilish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z imkoniyatlaridan iloji boricha samarali foydalanishi, o'zlashtirilmagan yangi faoliyat turlarini bajarishda o'z qobiliyatlarini ishga solishi, boshqa nuqtai nazarga ko'ra ularning motivatsiyasi tavakkalchilik, o'z imkoniyatlari chegaralarini aniqlashga asoslanadi. Bunda avvalo, dars ham kreativ tarzda amalga oshirilishi kerak.

Darsning kreativ tarzda olib borilishi nafaqat darsning chiroyli va mazmunli bo'lishiga, balki o'quvchilarning mavzuni yaxshi tushunishi, mavzudagi ma'lumotlarni yaxshi eslab qolishi

466



*NamGU ilmiy axborotnemas - Научный вестник НамГУ 2021 йил махсус сон*

uchun ham yordam beradi. Oddiy dars jarayoni hamma o'quvchilarni ham birdek o'ziga qiziqtiravermaydi, chunki odatiy tarzda olib boriladigan darslarda mavzu qanchalik yaxshi tushuntirilmasin, baribir yosh, intiluvchan bolalar uchun qiziqarli tuyulmaydi. Ular bilan birga ishlab, didaktik o'yinlar o'tkazib darsga noodatiy uslublarda yondashilsa, serharakat va qiziquvchan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dars yanada qiziqarli bo'ladi, ular bunday darslarni keying dars jarayonigacha intiqlik bilan kutishadi. O'quvchilarda nafaqat o'qituvchiga nisbatan, balki darsga bo'lgan hurmat uyg'onadi. Kreativ dars ijodiy metodologik tuzilishiga ko'ra an'anaviy darsdan farq qiladi va o'zida dars maqsadini qamrab oluvchi bosqichlari bilan kreativ ta'limning maqsadlarini amalga oshiradi. Dars jarayonida ham kreativlikni rivojlantiruvchi tili xil mashqalarni amalga oshirish mumkin. Masalan, 3-sinf o'quvchilari

o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash, ularga o'z bilim va ko'nikmalarida amaliyotda foydalanishni o'rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish va ularning kreativ fikrlash salohiyatini rivojlantirish masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Shunisi qiziqki, bolalar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar yoshlar va balog'atga yetgan shaxslarda ijodkorlik salohiyati bir xil bo'lishi aniqlandi. Shundan xulosa chiqarish mumkinki, kreativlik shaxsiy qobiliyatlarga asoslangan holda bolalarning juda yoshlik chog'idan rivojlanishini bilish mumkin. Demak, yangicha fikrlash boshlang'ich sinf o'quvchilarida ham kuchli bo'ladi, faqat uni to'g'ri yo'naltira bilish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z imkoniyatlarini iloji boricha samarali foydalanishi, o'zlashtirilmagan yangi faoliyat turlarini bajarishda o'z qobiliyatlarini ishga solishi, boshqa nuqtai nazarga ko'ra ularning motivatsiyasi tavakkalchilik, o'z imkoniyatlari chegaralarini aniqlashga asoslanadi. Bunda avvalo, dars ham kreativ tarzda amalga oshirilishi kerak.

Darsning kreativ tarzda olib borilishi nafaqat darsning chiroyli va mazmunli bo'lishiga, balki o'quvchilarning mavzuni yaxshi tushunishi, mavzudagi ma'lumotlarni yaxshi eslab qolishi

466



uchun ham yordam beradi. Oddiy dars jarayoni hamma o'quvchilarni ham birdek o'ziga qiziqtiravermaydi, chunki odatiy tarzda olib boriladigan darslarda mavzu qanchalik yaxshi tushuntirilmasin, baribir yosh, intiluvchan bolalar uchun qiziqarli tuyulmaydi. Ular bilan birga ishlab, didaktik o'yinlar o'tkazib darsga noodatiy uslublarda yondashilsa, serharakat va qiziquvchan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dars yanada qiziqarli bo'ladi, ular bunday darslarni keying dars jarayonigacha intilqlik bilan kutishadi. O'quvchilarda nafaqat o'qituvchiga nisbatan, balki darsga bo'lgan hurmat uyg'onadi. Kreativ dars ijodiy metodologik tuzilishiga ko'ra an'anaviy darsdan farq qiladi va o'zida dars maqsadini qamrab oluvchi bosqichlari bilan kreativ ta'limning maqsadlarini amalga oshiradi. Dars jarayonida ham kreativlikni rivojlantiruvchi turli xil mashqlarni amalga oshirish mumkin. Masalan, 3-sinf o'quvchilari ko'pburchaklar mavzusini o'rganmoqdalar va o'qituvchi ushbu mavzuni qanchalik darajada o'rganganlarini bilish maqsadida o'quvchilarni tashqariga olib chiqadi. Keyin har bir o'quvchiga bir necha ko'pburchaklardan misollar chizishlarini aytadi va o'quvchilar turli xil ko'pburchaklarni chizishadi. Bu jarayon amalga oshirilgach, o'qituvchi bu shakllarni o'zlari yoqtirgan narsaga aylantirishlarini aytadi. O'quvchilar ham geometrik shakldagi mushuklar, kuchuklar, robotlar va shunga o'xshash narsalarni chizadilar va uni sharhlaydilar, uning boshqa hayvonlardan farqli tomonlarini gapirib berishadi. Shu tufayli ularni nima uchun yoqtirishlarini sharhlab berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar o'zlarining sevimli narsalarini chizish jarayonida ularning kreativ salohiyati yuksalib boradi, chunki ular odatiy hayvon yoki buyumlarni chizishdan cheklanib, boshqa bir shakllardan o'zining sevimli narsalarini yaratadilar. Yoki boshqa bir mashg'ulot o'tkazsak, 2-sinf o'quvchilari muzlash tushunchasini o'rganishmoqda. O'qituvchi darsni boshlashdan oldin bir savol bilan o'quvchilarga murojaat qiladi: Faqat suv muzlaydimi? Keyin o'quvchilar va o'qituvchi ishtirokida yana nimalar muzlashi mumkinligini bilish uchun amaliy tajriba o'tkazib ko'rishlari mumkin. Cheklov shundaki ular faqat maktabda bor narsalar ishtirokida tajriba o'tkazishlari kerak. O'quvchilar muzlab qolish-qolmasligi bilish maqsadida tashqarida qoldiradigan narsalar ro'yxatini tuzadilar: suv, sharbat, sirka, yelim, shisha tozalagich, tish pastasi, va qog'oz. Ular qaror qilgan ba'zi takliflar tashqariga chiqmasligi kerak: qalam, o'chirgichlar va kitoblar (lekin qandaydir tarzda qog'oz test ro'yxatida qoladi). Ertasi kuni ular o'zlarining topilmalarini muhokama qiladilar. Hamda nima uchun qog'oz qotib qolganligini va sirka muzlamaganligi haqida qiziqarli suhbat o'tkazadilar. O'quvchilar o'rtasida nima muzlatib qo'yilishi mumkinligi haqidagi dastlabki muhokama o'z g'oyalarini himoya qilish va murosaga kelish kabi ko'nikmalar rivojlantiradi. Keyingi muhokama deduktiv mulohazalarni va faol tinglashni rag'batlantiradi.

O'qituvchi ham har bir ijodkorlik namunasini qadrlashi va uni mukofotlab borishi zarur. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida uning boshqa tengdoshlari oldida sevimli ustoz tomonidan taqdirlanishi yanada ruhlantiradi.

Ta'lim faoliyatining yangi shakllarini konstruksiyalash boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy shakllanishi asosini tashkil qiladi. Dastur fikrlash shakllarini tubdan yangilash; maktab o'quvchilarini intellektning yangi bosqichida o'tkazishini ko'zda tutadi. D.B.Elkoninning fikricha, ta'lim samaradorligi o'qitish jarayonida egallangan bilimning miqdori va sifati, rivojlanish samaradorligi o'quvchilar qobiliyati o'sishi darajasi bilan belgilanadi.

Kreativ darsning ma'lumot kartasi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1-yo'nalish. Motivlash: Bunda o'quvchini mo'jiza qarshi oladi. U tafakkurini hayratlantirgan u yoki bu narsa bilan to'qnashadi. Hayratlantiruvchi predmetlar bilan

467



to'qnashuv tizimi, ularning yaratilishi haqidagi izlanishlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish va faoliyati samaradorligini ta'minlaydi. Bu yo'nalishni dars jarayonida turli xil predmetlar timsolida olib boriladi. Masalan, ichiga yelkanli kema joylashtirilgan butilka. Bunday predmetlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli va hayratlanarli.

2-yo'nalish. Dasturiy materialning mazmuni: darsning mazmuni berilgan mavzu bo'yicha aniq dars materiali ijodiy tafakkur va fantazyaga tayyorgarlik tarzida beriladi.

3-yo'nalish. Psixologik dam olish: darsning bu qismi jismoniy daqiqa sport, raqamli, jismoniy mashqlarning o'yin shaklida yoki bosh miya yarimsharlarining uyg'unligini

ro'yxatini tuzadilar: suv, sharbat, sirka, yelim, shisha tozalagich, tish pastasi, va qog'oz. Ular qaror qilgan ba'zi takliflar tashqariga chiqmasligi kerak: qalam, o'chirgichlar va kitoblar (lekin qandaydir tarzda qog'oz test ro'yxatida qoladi). Ertasi kuni ular o'zlarining topilmalarini muhokama qiladilar. Hamda nima uchun qog'oz qotib qolganligini va sirka muzlamaganligi haqida qiziqarli suhbat o'tkazadilar. O'quvchilar o'rtasida nima muzlatib qo'yilishi mumkinligi haqidagi dastlabki muhokama o'z g'oyalari himoya qilish va murosaga kelish kabi ko'nikmalar rivojlantiradi. Keyingi muhokama deduktiv mulohazalarni va faol tinglashni rag'batlantiradi.

O'qituvchi ham har bir ijodkorlik namunasini qadrlashi va uni mukofotlab borishi zarur. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida uning boshqa tengdoshlari oldida sevimli ustoz tomonidan taqdirlanishi yanada ruhlantiradi.

Ta'lim faoliyatining yangi shakllarini konstruksiyalash boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy shakllanishi asosini tashkil qiladi. Dastur fikrlash shakllarini tubdan yangilash; maktab o'quvchilarini intellektning yangi bosqichida o'tkazishini ko'zda tutadi. D.B.Elkoninning fikricha, ta'lim samaradorligi o'qitish jarayonida egallangan bilimning miqdori va sifati, rivojlanish samaradorligi o'quvchilar qobiliyati o'sishi darajasi bilan belgilanadi.

Kreativ darsning ma'lumot kartasi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1-yo'nalish. Motivlash: Bunda o'quvchini mo'jiza qarshi oladi. U tafakkurini hayratlantirgan u yoki bu narsa bilan to'qnashadi. Hayratlantiruvchi predmetlar bilan

467



*NamGU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ 2021 йил махсус сон*

to'qnashuv tizimi, ularning yaratilishi haqidagi izlanishlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish va faoliyati samaradorligini ta'minlaydi. Bu yo'nalishni dars jarayonida turli xil predmetlar timsolida olib boriladi. Masalan, ichiga yelkanli kema joylashtirilgan butilka. Bunday predmetlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli va hayratlanarli.

2-yo'nalish. Dasturiy materialning mazmuni: darsning mazmuni berilgan mavzu bo'yicha aniq dars materiali ijodiy tafakkur va fantaziyaga tayyorgarlik tarzida beriladi.

3-yo'nalish. Psixologik dam olish: darsning bu qismi jismoniy daqiqa sport, raqamli, jismoniy mashqlarning o'yin shaklida yoki bosh miya yarimsharlarining uyg'unligini ta'minlovchi mashqlardan tashkil topadi. O'yinlar, teatrlashgan, taqlid etuvchi raqsar va jismoniy mashqlar ushbu yo'nalishga misol bo'la oladi. Muntazam jismoniy mashqlar ishchanlik va sog'lomlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

4-yo'nalish. Boshqotirma: darsning bu qismi ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga, motivlashtirishga, tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy kreativ darsning muhim elementlaridan biri sifatida o'quvchilar ijodiy faoliyati tabiiy obyektlar tizimida o'tkir aql va topqirlik mujassamlashgan boshqotirmalar muhim ahamiyatga ega.

5-yo'nalish. Intellekt mashqlar: darsning bu qismi ijodiy faoliyatni, tafakkurni va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni ko'zda tutadi. U maxsus bilimlarni talab qilmaydigan, faqat fikrlash, topqirlik va mustaqil yechimni talab qiladigan ijodiy topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Bu bilimlarning murakkablashtirilgan tizimi bo'lib, o'quvchilar yoshiga mos maqsadga yo'naltirilgan qiziquvchanlikni, ijodiy qobiliyatni, tafakkurni, narsalarga o'zgacha qarashni talab etadi.

6-yo'nalish. Fikrlash kompyuterining intellektual tayanchi: ta'limning bu shakli ijodiy fikrlashning chuqur rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilar ijodiy qobiliyatini kompyuterlar muhiti, multimedialar, interktiv ta'sir va boshqalar yordamida qo'shimcha imkoniyatlar bilan darsda foydalanilgan bosqotirmaning davomi sifatida foydalanish

7-yo'nalish. Rezyume: darsning bu qismi o'qituvchi va o'quvchi orasida aniq dars mavzusi bo'yicha materiallar yuzasidan fikrini bildirish va baholashda qarama-qarshi aloqa o'rnatish imkonini beradi. [2]

Xulosa qilib aytganda, bolalardagi kreativ salohiyatni rivojlantira olish o'qituvchiga ham bog'liq. Sababi o'sib kelayotgan yosh avlod dastlab boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan ta'lim oladi, ulardan o'mak oladi, ularga havas qiladi. Kreativ salohiyatga ega o'quvchilar boshqalarga taqlid qilmasdan, o'zlari tanlagan faoliyatning barcha bosqichlariga mustaqil va kreativ holda yondashadilar. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik qobiliyatlarini takomillashtirish uchun uning o'sishi, qandaydir yangi mahsuldorligini yuksaltirish uchun ta'lim jarayonida o'zini-o'zi nazorat qilish, materialni takrorlab tekshirish, esga tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish darkor.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.SH. M. Miromonovich "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent- O'zbekiston-2016 14-bet
- 2.R.Mavlyanova, N.Raxmankulova "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" -Toshkent-Voris nashriyoti-2013 163-bet, 129-bet
- 3.Xasanboyev J., Sariboyev X., Niyozov G., Xasanboyeva O., Usmonboyeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma. - T: Fan, 2006.
- 4.Egamberliyeva N., Xodjaev B. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari:

468



*NamGU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ 2021 йил махсус сон*

mohiyat, talqin va yechim. T.:—Fan va texnologiya, 2013.